

## SHAXS RIVOJLANISHIDA ONGLILIK DARAJASI.

ADPI 1-kurs talabasi  
Mirzakarimova O’g’i

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada individning shaxs bo’lib shakllanishi va bunda onglilik darajasi nechog’lik muhim ahamiyat kasb etishi, jahon olimlarining bu haqidagi nazaryalaridan misollar keltirib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** individ, shaxs, individuallik, ong, ontogenez, filogenez, psixik jarayon, ongli shaxs, irsiyat.

Shaxs bo’lish uchun shunchaki odam bo’lishni o’zi kifoya emas. Shaxs bu jamiyatda o’z o’rniga ega, qilayotgan ishini anglab, o’ziga javob bera oladigan, atrofdegilar bilan yaxshi muomila qilib, ham aqlan ham jismonan mehnat faoliyati bilan shug’illana oladigan individ hisoblanadi. Individ bu — bo’linmaydigan, alohida mustaqil holda mavjud bo’lgan organizmdir. Individ yillar davomida rivojlanib shaxs sifatida shakllanadi. Inson dunyoga individ bo’lib keladi, individning tana tuzilishi to’g’ri rivojlansa, jismonan sog’lom sog’lkm bo’lib ulg’aysa, yillar davomida mehnat faoliyati tufayli shaxsga aylanadi va fazilatlar shakllanib individual shaxsga aylanadi. Individuallik bu o’ziga xoslik, yani shaxsiy psixika hisoblanadi. Individual shaxs boshqa kishilardan o’z fazilatlarini bilan ajralib turadi. Bunga kishining harakteri, irodaviy kuchi, qobiliyat, iqtidori, temperamenti, dunyoqarash va shunga o’xshash fazilatlar kiradi. Dunyoda barcha inson o’z individulligi bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va har bir shaxs betakroridir.

Shaxs haqida jahonning juda kòplab olimlari hozirgi kunga qadar o’z nazaryalarini tatbiq etib kelmoqda. Eng yirik namoyondachilardan S.Xoll, E.Krechmer, Z.Freyd, Perikson E. Erikson va Pyajelarning o’ziga xos nazariyalari mavjud. Shaxs bu ongli mavjudoddir, ong esa olamni bilish mehanizimidir va u inson hayoti davomida rivojlanib boradi. Shaxsga xos aql farosat, o’zini o’zi anglash òzidan o’zi shakllangan emas albatta. Bu hayot davomida odamzotning paydo bo’lishi yani ontogenezda "individ paydo bo’lishidan toki umrining ohirigacha bo’lgan jarayon"da shakllanadi. Gekeller va Myullerning biogenetik qonuniyatiga ko’ra ontogenez filogenezni qisqacha taraqqiyotini takrorlaydi. Filogenez—butun organik dunyoning taraqqiyoti hisoblanadi.

Ongli shaxsning qolgan mavjudodlardan farqi shundaki, u o’zini yashash tarizi uchun kerak bolgan ehtiyojlarni, moddiy manaviy boyliklarni yarata oladi, tashqi muhit tasiriga moslashadi. Boshqa jonzotlar ham tashqi muhitga moslashadiz lekin Ongli shaxs hayvonlardan farqli ravishda, o’z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashqi muhitni o’zgartira oladi. Odamni dunyoga kelishi va uning shaxs sifatida rivojlanishi atrof muhitga va boshqalarning munosabatiga ham bog’liqdir. Bunga misol qilib keltirsak Mavguli o’zi odam bo’la turib hayvonlar orasida, yovvoyi muhitda yashagani uchun u shaxs bo’la olmaydi. Odam ko’rinishidagi hayvonga aylanib qolishiga yashab turgan atrof muhiti o’z tasirini ko’rsatdi. Olimlar hozirgi kunga qadar mana shu vaziyat ustida ish olib borishadi. Bazi olimlar shaxs bo’lib irsiyatga bog’liq desa, yana bir gurux olimlar shaxs bo’lish uchun ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega ekanligini takidlaydi. Lekin ongli shaxs bo’lish uchun ikkala nazarya ham juda zarur.

Dunyoning ko’zga ko’ringan namoyondalaridan biri bo’lgan Avstryalik psixiyator Zigmund Freyd inson psihikasini uch bosqichga, ong ong osti va ongsizlikka bo’lgan. Onsizlik bu onglilikni aksi bo’lib aynan u jamiyatga qarshi turadi. Z.Freyd yomonidan fanga kiritilgan "himoya mehanizimi" (insonning salbiy kechinmalaridan, o’zini o’zi himoyalashga qaratilgan anglanmagan psixik jarayonidir. Zigmund Freyd nazaryasiga ko’ra;

inson havotirli vaziyatlarda o’zi anglamagan holda himoyalaniş uchun ongsizlik holatiga tushib qoladi. Bunday holat hammada kuzatilib turiladi.

Ong -- bu jonli tabiatning oliy shakli bo’lgan, yashab turgan tevarak atrofni anglab, sezib, ko’rib, taffakur qilib yashaydigan miyyamizning maxsulidir. Mana shu pisixik jarayonni buzulishi ongsizlikga olib keladi. Ongni rivojlanishi, shakllanishi bu insonning mehnatiga harakatiga bog’liqdir. Yoshligida ikki bahoga o’qigan bola kelajakda biror bir mavqega ega bo’laolmaydi deb hech kim aniq aytolmaydi, sababi ong doimo rivojlanadi, yani mehnat faolligiga qarab. Hayoti davomida ko’p kitob o’qigan, bilim salohiyati kuchli bo’lgan, doimo izlanishda bo’lgan shaxs bilan doimo bir xillikda yashaydigan, o’z tafakkurini bekorchi narsalarga sarf qiladigan shaxsni dunyo qarashida, yani ongida farq juda katta bo’ladi. Demak hamma odamda ong bor lekin, uni rivojlantirish o’z mehnat faolligimizga bog’liqdir. Ongni anglash miyyani fikrlashga yonaltirish bu shaxsga koinotni anglashga yol ochadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs bo’lib yetishish uchun odam bo’lishning o’zi yetarli emas. Individlidan shaxslikga o’tish uchun esa inson ongi juda muhim ahamyatga ega. Ongning shakllanishi esa, insonning o’z ustida ishlashi, ham ma’naviy, ham jismoniy mehnat qilishi, hayotiy tajribalari, faoliyati natijasida yuzaga keladi.

#### **Fodalanilgan adabiyorlar:**

1. Umumiy psixologiya. Davletshin M.G T- 2002
2. Umumiy pisihalogiya. Ğoziyev. E. Ğ. 1-2 bet 2002
3. ВАХАБОВА, Ў. (2023). ТУРЛИ ПСИХОДИАГНОСТИК МЕТОДИКАЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 134-138